


**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**



**2023- YIL
YANVAR-FEVRAL**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda ro'y berayotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi, bu esa ushbu masalaning dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

17 081 birlik

64,8 %


Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

97,5 %

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **26 347** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **17 081** birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **64,4 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **97,5 %** ni tashkil etgan.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (% da)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (22 327 birlikni) 13 154 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 58,9 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lamini, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

**XIZMATLAR
SOHASI**

2023- y.	63,3 %	Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi
2022- y.	66,7 %	

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'mda	2 178,0	2023- y.
	1 869,2	2022- y.

2023- y.	784,9	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar, ming so'mda
2022- y.	689,2	

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 178,0** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilga (**112,0 %**) nisbatan o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-fevral)

	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati ¹⁾	2 178,0	100,0	104,9
Termiz sh.	623,8	28,9	109,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	85,3	3,8	101,1
Angor	90,7	4,1	102,0
Boysun	66,8	3,0	101,8
Bandixon	47,0	2,2	100,7
Muzrabot	97,1	4,4	101,5
Denov	278,5	12,8	106,3
Jarqo'rg'on	128,5	5,9	104,4
Qumqo'rg'on	136,7	6,4	104,6
Qiziriq	83,3	3,8	101,4
Sariosiyo	127,0	5,8	103,0
Termiz	94,7	4,2	102,7
Uzun	88,8	4,1	101,7
Sherobod	115,3	5,3	102,3
Sho'rchi	114,5	5,3	105,0

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy
ko'rsatkichlari**

2023- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **784,9** ming so'mga yetdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,5** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati


Xizmatlar hajmi (mln. so'mda)

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-fevral)	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	784,9	102,5
Termiz sh.	3 236,9	105,2
Oltinsoy	458,8	99,0
Angor	653,3	99,8
Boysun	552,6	100,0
Bandixon	589,2	97,9
Muzrabot	653,0	99,4
Denov	688,1	103,8
Jarqo'rg'on	554,8	102,1
Qumqo'rg'on	576,9	102,4
Qiziriq	693,2	99,2
Sariosiyo	576,9	100,8
Termiz	1164,7	100,4
Uzun	489,7	99,6
Sherobod	564,9	100,1
Sho'rchi	519,5	102,6

Xizmatlar sohasida kichik biznes

Kichik biznes sektori iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta‘minlashga yordam beradi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so‘mda)




2023- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi **1379,6** mlrd. so‘mga teng bo‘lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **63,3** % ni shu jumladan, **26,9** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning eng katta hajmi Termiz shahrida qayd etildi – **270,9** mlrd. so‘m.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi


(2023- yil yanvar-fevral)



Ko'rib chiqilayotgan davrlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili moliyaviy xizmatlar (**562,6** mlrd. so'mga), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**114,8** mlrd. so'mga), ta'lim xizmatlari (**70,1** mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining o'sishidir.

2022-2023 yillarda Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm;



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral)

X
I
Z
M
A
T
L
A
R

S
O
H
A
S
I

- 1 Savdo xizmatlari – 34,1 %
- 2 Moliyaviy xizmatlar – 25,8 %
- 3 Transport xizmatlari – 14,4 %
- 4 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar – 5,3 %
- 5 Ta'lim sohasidagi xizmatlari – 3,2 %
- 6 Shaxsiy xizmatlar – 3,0 %
- 7 Yashash va ovqatlanish xizmatlari – 2,7 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari eng katta ulushni egallaydi. 2023- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlarining ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**25,8 %**), transport (**14,4 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,3 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**3,2 %**) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Kam hajmga ega Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar qayd etildi, ushbu xizmat turining ulushi **1,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2022- y. yanvar-fevral	2023- y. yanvar-fevral	
Xizmatlar – jami	1 869,2	2 178,0	104,9
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	87,8	114,8	127,0
Moliyaviy xizmatlar	403,1	562,6	125,1
Transport xizmatlari	273,7	313,0	105,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	255,4	289,4	100,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	59,3	58,3	84,1
Savdo xizmatlari	691,2	743,0	94,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	44,8	48,2	100,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	60,6	70,1	115,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	30,0	32,3	93,6
Ijara xizmatlari	41,9	41,9	93,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	50,6	56,7	100,9
Shaxsiy xizmatlar	53,1	66,5	103,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,1	21,2	81,8
Boshqa xizmatlar	48,8	49,4	94,5


Savdo xizmatlari

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yil 1-mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi ulushi (**47,4 %** yoki **8101** birlik) ustunlik qilmoqda. Ulardan **51,4 %** ni (**8087** birlik) kichik biznes subyektlari tashkil etadi.

2023- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi **743,0** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Savdo xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar-fevral)

S
a
v
d
o

x
i
z
m
a
t
l
a
r
i

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

83,2 %

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari

12,0 %

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

4,9 %

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, (2023- yil yanvar-fevral, % da)

	<i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i>	<i>Ulgurji savdo xizmatlari</i>	<i>Chakana savdo xizmatlari</i>
Surxondaryo viloyati	4,9	12,0	83,2
Termiz sh.	6,6	15,7	77,7
Oltinsoy	4,1	5,3	90,6
Angor	3,9	3,6	92,5
Boysun	4,2	1,8	93,9
Bandixon	4,3	0,4	95,3
Muzrabot	3,0	34,0	63,0
Denov	7,0	16,6	76,4
Jarqo'rg'on	4,7	3,8	91,5
Qumqo'rg'on	4,7	2,4	92,8
Qiziriq	3,5	22,1	74,4
Sariosiyo	4,3	13,4	82,3
Termiz	4,4	7,0	88,6
Uzun	4,2	2,8	92,9
Sherobod	3,9	17,3	78,8
Sho'rchi	3,3	5,2	91,5

Hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mlrd. soʻmda)

Surxondaryo viloyati	743,0	Qumqoʻrgʻon	43,3
Termiz sh.	131,9	Angor	39,4
Denov	100,8	Oltinsoy	38,5
Muzrabot	47,8	Termiz	37,5
Sherobod	47,3	Qiziriq	36,7
Sariosiyo	46,3	Uzun	35,5
Jarqoʻrgʻon	45,1	Boysun	26,5
Shoʻrchi	45,1	Bandixon	21,4

Transport xizmatlari




2023- yil 1- yanvar-fevral holatiga koʻra, tashish va saqlash bilan bogʻliq faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **759** birlikni yoki ularning umumiy sonining **4,4 %** ini tashkil etdi. Ulardan **750** birlik (**89,2 %**) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.


Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi **313,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmat turining o‘shish sur‘ati **105,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi mlrd. so‘mda)



*Turlari bo‘yicha
transport
xizmatlarining
tarkibi
(2023- yil yanvar-
fevral)*



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi ustunlik qilmoqda – **92,5** %. Yordamchi transport faoliyati eng kichik ulushni egallaydi – **7,5** %.

Transport xizmatlari (2023- yil yanvar-fevral)	Hajm, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Surxondaryo viloyati ¹⁾	313,0	100,0	105,1
Termiz sh.	55,3	17,7	111,8
Oltinsoy	14,5	4,6	101,4
Angor	16,3	5,2	104,3
Boysun	13,2	4,2	103,2
Bandixon	10,1	3,2	101,9
Muzrabot	17,1	5,5	106,4
Denov	35,4	11,3	106,4
Jarqoʻrgʻon	25,4	8,1	107,3
Qumqoʻrgʻon	19,8	6,3	104,5
Qiziriq	14,8	4,7	100,1
Sariosiyo	20,2	6,4	100,5
Termiz	17,0	5,4	98,6
Uzun	15,5	4,9	101,4
Sherobod	19,2	6,1	101,7
Shoʻrchi	19,2	6,1	110,4

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yil yanvar-fevral oylarida Termiz shahri (**111,8 %**) va Denov tumanida (**106,4 %**) transport xizmatlari boʻyicha yuqori oʻsish surʼatlari qayd etildi.


Avtomobil transporti xizmatlari

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlari kiradi.


2023- yilning yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **289,4** mlrd. so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **100,5** % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,3** % ni tashkil etdi.

Avtomobil transport hajmi (mlrd. so'mda)



Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi



Avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida yuklarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi.

2023- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **67,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil ushbu ko'rsatkich **66,5 %** ni tashkil etgan.


Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati ¹⁾	289,7	Angor	16,0
Termi sh	50,9	Uzun	15,2
Denov	33,8	Muzrabot	14,7
Sariosiyo	20,1	Qiziriq	14,6
Qumqo'rg'on	19,0	Oltinsoy	14,3
Sherobod	18,8	Termiz	14,0
Jarqo'rg'on	18,7	Boysun	13,0
Sho'rchi	16,6	Bandixon	9,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hududlar kesimida avtomobil transport xizmatlarning o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar-fevral)




Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **159,5** mlrd. soʻmga oshdi va **562,6** mlrd. soʻmga yetdi. Jami koʻrsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **25,8 %** ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati **125,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi (trln. soʻmda)




*Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-fevral)*



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari (pul mablagʻlarini olish va qayta taqsimlash boʻyicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi .

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari

(2023- yil yanvar-fevral)



Hududlar kesimida xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati	562,5	Termiz	13,9
Termiz sh.	253,9	Muzrabot	11,6
Denov	76,5	Angor	12,5
Qumqo'rg'on	44,5	Qiziriq	12,0
Sariosiyo	31,3	Oltinsoy	9,9
Jarqo'rg'on	28,5	Boysun	8,1
Sho'rchi	19,7	Bandixon	4,6
Sherobod	18,8		
Uzun	14,7		


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **340** birlikka yetdi, shundan **333** tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **114,8** mlrd. so'm darajasida qayd etildi va 2022- yilning yanvar-fevraliga nisbatan o'sish sur'ati **127,0** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)





Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-fevral)	Hajm, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Surxondaryo viloyati ¹⁾	114,8	100,0	127,0
Termiz sh.	26,3	22,9	132,1
Oltinsoy	6,0	5,3	127,0
Angor	4,6	4,0	125,4
Boysun	4,3	3,7	123,8
Bandixon	2,4	2,1	120,9
Muzrabot	4,9	4,2	125,5
Denov	15,1	13,1	130,9
Jarqoʻrgʻon	7,6	6,6	124,8
Qumqoʻrgʻon	8,0	7,0	127,2
Qiziriq	4,0	3,4	121,2
Sariosiyo	7,2	6,3	124,5
Termiz	4,0	3,5	118,0
Uzun	6,1	5,4	125,6
Sherobod	6,8	5,9	126,4
Shoʻrchi	7,5	6,6	122,4

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yilning yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Termiz shahrida qayd etildi. Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **7,0** mlrd. soʻmga oshib, **26,3** mlrd. soʻmni tashkil etgan.

**Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi**
(2023- yil yanvar-fevral)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keldi – **95,8 %**.

Taqqoslash uchun: 2022-yilda bu ko'rsatkich **95,0 %** ni tashkil etgan.


Telekommunikatsiya xizmatlari

Telekommunikatsiya xizmatlari – bu ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **109,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **128,1 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **5,0 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati ¹⁾	109,9	Oltinsoy	6,0
Termiz sh.	23,2	Muzrabot	4,8
Denov	14,6	Angor	4,5
Qumqo'rg'on	7,9	Boysun	4,1
Jarqo'rg'on	7,5	Qiziriq	3,9
Sariosiyo	7,0	Termiz	3,9
Sherobod	6,7	Bandixon	2,4
Uzun	6,1		

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami

	Hajmi, mlrd. so'mda	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	114,8	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	110,9	96,6
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	109,9	99,1
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	1,0	0,9
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	3,9	3,4
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	2,7	69,2
Kino – videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar	0,2	5,1
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,2	5,1
Boshqa axborot xizmatlari	0,8	20,6


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



**Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi
xizmatlar hajmi**

(2023- yil yanvar-fevral)


	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	70,1	100,0	115,3
Termiz sh.	34,6	49,4	117,8
Oltinsoy	1,1	1,6	107,3
Angor	1,2	1,8	108,8
Boysun	0,9	1,3	106,5
Bandixon	0,3	0,4	116,3
Muzrabot	0,9	1,3	114,6
Denov	12,3	17,6	116,3
Jarqo'rg'on	2,1	2,9	110,5
Qumqo'rg'on	1,5	2,1	110,9
Qiziriq	1,5	2,1	109,9
Sariosiyo	1,7	2,4	114,4
Termiz	4,1	5,8	112,1
Uzun	1,4	2,0	108,5
Sherobod	3,0	4,2	115,5
Sho'rchi	3,5	5,1	109,9

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2023- yil 1-mart holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **439** birlikni tashkil etdi, shundan **362** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sogʻliqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun koʻrsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Xizmatlar hajmi (mlrd. soʻmda)



Hududlar kesimida sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mlrd.soʻmda)

Surxondaryo viloyati	32,3	Shoʻrchi	1,0
Termiz sh.	17,3	Sariosiyo	0,6
Denov	3,0	Uzun	0,5
Boysun	2,2	Angor	0,5
Sherobod	2,0	Qiziriq	0,4
Termiz	1,5	Oltinsoy	0,4
Jarqoʻrgʻon	1,4	Muzrabot	0,3
Qumqoʻrgʻon	1,1	Bandixon	0,2


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1576** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 568** birlik kichik biznes subyektlaridir.


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



**Hududlar kesimida
yashash va ovqatlanish xizmatlarining
o'sish sur'atlari**
(2023- yil yanvar-fevral)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **48,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,2** % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,2** % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)


Surxondaryo viloyati	48,2	•Qumqo'rg'on	2,6
Termiz sh.	9,0	Uzun	2,5
Denov	5,2	Qiziriq	2,4
Jarqo'rg'on	4,0	Oltinsoy	2,2
Angor	3,9	Boysun	2,1
Sho'rchi	3,2	Muzrabot	2,1
Sariosiyo	3,0	Termiz	2,0
•Sherobod	2,7	Bandixon	1,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Hududlar kesimida ijara xizmatlarining o'sish sur'atlari (% da)




Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi – bu kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar) ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **56,7** mlrd. so'm qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,9** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral, % da)




Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

2022- yilga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 2023- yilning yanvar-fevral oylarida **21 190,2** mln. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,0** %ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **81,8** % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi (mln. so'mda)



Hududlar kesimida me'morchilik sohasida xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral, mln. so'mda)

Surxondaryo viloyati	21190,2	Jarqo'rg'on	131,4
Termiz sh.	17 723,9	Sariosiyo	114,1
Denov	1 096,7	Boysun	99,3
Termiz	908,3	Sho'rchi	91,7
Sherobod	282,0	Oltinsoy	83,9
Angor	171,5	Uzun	83,4
Qumqo'rg'on	144,8	Qiziriq	83,4
Muzrabot	136,9	Bandixon	38,8



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91